

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

## REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 3-sон

VOLUME 8 / ISSUE 3 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.3.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT  
YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amalij jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**Muharrirlar:**

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,  
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,  
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Sh. Beknazarova

**Musahhih:**

S. Rasulova

**Texnik muharrir:**

U. Sapayev

**Dizayner:**

D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar,  
Sayilgoh ko'chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 25.09.2024-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.  
Shartli 7,5 b.t. Adadi: 100.  
Buyurtma raqami: 140.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

**BOSH MUHARRIR**

*I. Rustambekov* – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**

*B. Xodjayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

**MAS'UL MUHARRIR**

*O. Choriyev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI**

*A. Saidov* – Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

*E. Juchniewicz* – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

*A. Younas* – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

*O. Okyulov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*J. Nematov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*Sh. Asadov* – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*M. Aminjonova* – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*M. Rahimov* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*O. Narzullayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*B. Murodov* – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*A. Muxamedjanov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*N. Niyazova* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ  
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

**Редакторы:**

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,  
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,  
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,  
Ш. Бекназарова

**Корректор:**

С. Расулова

**Технический редактор:**

У. Сапаев

**Дизайнер:**

Д. Ражапов

**Адрес редакции:**

100047. Город Ташкент,  
улица Сайилгоҳ, 35.  
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Веб-сайт:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Подписной индекс:** 1385.

Журнал передан в типографию  
25.09.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 7,5. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 140.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

**© Ташкентский государственный  
юридический университет**

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**

*И. Рустамбеков* – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

**ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА**

*В. Ходжаев* – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР**

*О. Чориев* – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

**ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ**

*А. Сайдов* – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*Э. Юхневич* – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

*А. Юнас* – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

*О. Окулов* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Ж. Нематов* – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Ш. Асадов* – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*М. Аминжонова* – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*М. Рахимов* – доктор юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*О. Нарзуллаев* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Б. Муродов* – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*А. Мухамеджанов* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Н. Ниязова* – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF LAW**

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

**Editors:**

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,  
E. Mustafaev, K. Abdullaieva,  
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,  
Sh. Beknazarova

**Proofreader:**

S. Rasulova

**Technical editor:**

U. Sapayev

**Designer:**

D. Rajapov

**Publishing department address:**

100047. Tashkent city,  
Sayilgokh street, 35.  
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

**Website:** [review.tsul.uz](http://review.tsul.uz)

**E-mail:** [reviewjournal@tsul.uz](mailto:reviewjournal@tsul.uz)

**Subscription index:** 1385.

The journal is submitted to the printing house on 25.09.2024.  
Paper size: A4.  
Cond. p.p.7,5. Unit: 100.  
Order: 140.  
Published in printing house of TSUL.

**CHIEF EDITOR**

*I. Rustambekov* – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**DEPUTY EDITOR**

*B. Xodjaev* – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**EXECUTIVE EDITOR**

*O. Choriev* – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

**EDITORIAL BOARD MEMBERS**

*A. Saidov* – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

*E. Juchniewicz* – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

*A. Younas* – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Beijing, China)

*O. Okyulov* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*J. Nematov* – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*Sh. Asadov* – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*M. Aminjonova* – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*M. Rakhimov* – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) (Tashkent, Uzbekistan)

*O. Narzullaev* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*B. Murodov* – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*A. Muxamedjanov* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*N. Niyazova* – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

# MUNDARIJA

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

8 **IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA**

Xalqaro xususiy huquqda majburiyat munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish

15 **KAN YEKATERINA EDUARDOVNA**

Tibbiy tashxisda sun'iy intellekt va bemor huquqlarini himoya qilish munosabatlarining huquqiy arxitekturasi

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.  
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSİYA

22 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokat ishtirokining protsessual jihatlari

31 **XURSANOV RUSTAM XOLMURATOVICH**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida subsidiar javobgarlik masalalari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

39 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**

Markaziy Osiyoda tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning huquqiy masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH.  
KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

47 **XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH**

Jinoiy ravishda homila tushirish jinoyati obyektiv tomonining ilmiy-nazariy jihatlari

55 **ERMASHEV JENGIS MARATOVICH**

Bojxona sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: ularni o'zaro farqlash masalalari

# СОДЕРЖАНИЕ

---

## 12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

8 **ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА**

Совершенствование правового регулирования обязательственных отношений в международном частном праве

15 **КАН ЕКАТЕРИНА ЭДУАРДОВНА**

Правовая архитектура взаимосвязи искусственного интеллекта и защиты прав пациентов при медицинской диагностике

---

## 12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ

22 **ПИРМАТОВ ОТАБЕК ШАВКАТОВИЧ**

Процессуальные аспекты участия адвокатов в гражданском судопроизводстве

31 **ХУРСАНОВ РУСТАМ ХОЛМУРАТОВИЧ**

Вопросы субсидиарной ответственности в гражданском праве Республики Узбекистан

---

## 12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

39 **САДИКОВА ДИЛАФРУЗ РАДЖАБОВНА**

Правовые вопросы использования возобновляемых источников энергии в Центральной Азии

---

## 12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

47 **ХАЙДАРОВ ШУХРАТЖОН ДЖУМАЕВИЧ**

Научно-теоретические аспекты объективной стороны преступления аборта в уголовном процессе

55 **ЕРМАШЕВ ДЖЕНГИС МАРАТОВИЧ**

Квалификация преступлений в таможенной сфере: вопросы их взаимной дифференциации

# CONTENTS

---

## 12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

8 **IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA**

Improving the legal regulation of obligation relations in international private law

15 **KAN EKATERINA EDUARDOVNA**

Legal architecture of the relationship between artificial intelligence and the protection of patients' rights in medical diagnostics

---

## 12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION AND MEDIATION.

22 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**

Procedural aspects of lawyers' participation in civil proceedings

31 **KHURSANOV RUSTAM KHOLMURATOVICH**

Issues of subsidiary liability in the civil law of the Republic of Uzbekistan

---

## 12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

39 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**

Legal issues of the use of renewable energy sources in Central Asia

---

## 12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

47 **KHAYDAROV SHUKHRATJON JUMAEVICH**

Scientific and theoretical aspects of the objective side of the crime of abortion in the criminal process

55 **ERMASHEV JENGIS MARATOVICH**

Qualification of crimes in the customs field: issues of their mutual differentiation

Kelib tushgan / Получено / Received: 22.08.2024  
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 10.09.2024  
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.09.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.3./GEBT7928

UDC: 343.988 (575.1)

## BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH: ULARNI O'ZARO FARQLASH MASALALARI

**Ermashev Jengis Maratovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ORCID: 0000-0003-2967-5266  
e-mail: j.ermashev1977@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bojxona sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ularni o'zaro farqlash masalalari tadqiq etilgan. Bunda ushbu sohadagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda Jinoyat kodeksining 130-, 130<sup>1</sup>-, 182-, 184-, 244<sup>3</sup>-, 244<sup>4</sup>-, 246- va 250<sup>1</sup>-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar o'rtasidagi o'zaro farqlarga e'tibor qaratilgan. Bu borada ushbu jinoyatlarni farqlashdagi eng muhim belgi ularning bevosita obyektidir. Shuningdek, ushbu jinoyatlarni farqlashdagi yana bir muhim belgi ularning predmeti hisoblanadi. Bu borada jinoyat qonunchiliginini yanada takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida Jinoyat kodeksini "Iqtisodiy kontrabanda" deb nomlangan yangi 182<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirish hamda unda quyidagi predmetlarni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish uchun javobgarlikni nazarda tutish taklif qilingan: 1) eksport va import qilinishi taqiqlangan hamda cheklangan tovarlar yoki transport vositalari; 2) qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, antidemping yoki kompensatsiya bojlari solingan va muhofaza choralar joriy etilgan tovarlar yoki transport vositalari; 3) valyuta qimmatliklari; 4) rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlari; 5) chegaradan olib o'tilishi iqtisodiyot tarmog'iga jiddiy zarar yetkazadigan boshqa predmetlar. Bundan tashqari, maqolada bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda predmetlarni o'tkazish bilan bog'liq qilmishlarni ularning predmetini inobatga olgan holda nazariy jihatdan quyidagi uch turkumga, ya'ni oddiy, iqtisodiy va maxsus kontrabandaga ajratish tavsiya etilgan. Shuningdek, maqolada bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hamda bojxona to'lovlaridan bo'yin tov lash jinoyatlarini farqlash masalasida amaliyatda yuzaga kelayotgan muammoni hal qilish maqsadida Jinoyat kodeksini "Bojxona to'lovini to'lash majburiyatini bajarmaslik" deb nomlanuvchi 184<sup>2</sup>-modda bilan to'ldirish taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** bojxona sohasidagi jinoyatlar, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, o'xshash tarkibli jinoyatlar, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish, iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyat, kontrabanda, iqtisodiy kontrabanda, maxsus kontrabanda, bojxona to'lovini to'lash majburiyatini bajarmaslik, muhofaza choralar, antidemping (kompensatsiya) bojlari.

## КВАЛИФИКАЦИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В ТАМОЖЕННОЙ СФЕРЕ: ВОПРОСЫ ИХ ВЗАЙМНОЙ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ

**Ермашев Дженис Маратович,**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы квалификации и взаимной дифференциации таможенных преступлений. При этом при квалификации преступлений в данной сфере внимание акцентировано на взаимную дифференциацию, предусмотренную статьями 130, 130<sup>1</sup>, 182, 184, 244<sup>3</sup>, 244<sup>4</sup>, 246 и 250<sup>1</sup> Уголовного кодекса. В связи с этим важнейшим признаком дифференциации данных преступлений является их непосредственный объект. Также ещё одним существенным признаком дифференциации является их предмет. Поэтому обоснована необходимость дальнейшего совершенствования уголовного законодательства. В результате исследования предложено дополнить Уголовный кодекс новой статьёй 182<sup>1</sup> под названием «Экономическая контрабанда» и предусмотреть ответственность за незаконное перемещение через таможенную границу следующих предметов: 1) товаров или транспортных средств, вывоз и импорт которых запрещён или ограничен; 2) товаров или транспортных средств, облагаемых налогом на добавленную стоимость, акцизом, антидемпинговыми или компенсационными пошлинами или с применением других защитных мер; 3) валютных ценностей; 4) цветных металлов, их лома и отходов; 5) других предметов, перемещение которых через границу наносит серьёзный ущерб экономике. Кроме того, в статье рекомендуется разделить действия, связанные с незаконным перемещением предметов через таможенную границу, с учётом их предмета, на следующие три категории контрабанды: обычная, экономическая и специальная. Также в статье предлагается дополнить Уголовный кодекс статьёй 184<sup>2</sup> под названием «Неуплата таможенной пошлины» с целью решения проблемы дифференции преступлений нарушения таможенного законодательства и уклонения от уплаты таможенных пошлин.

**Ключевые слова:** таможенные преступления, квалификация преступлений, преступления аналогичного содержания, нарушение таможенного законодательства, преступления против основ экономики, контрабанда, экономическая контрабанда, специальная контрабанда, неисполнение обязанности по уплате таможенных пошлин, защитные меры, антидемпинговые (компенсационные) пошлины.

## QUALIFICATION OF CRIMES IN THE CUSTOMS FIELD: ISSUES OF THEIR MUTUAL DIFFERENTIATION

**Ermashev Jengis Maratovich,**  
Independent researcher of  
Tashkent State University of Law,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences

**Abstract.** This article examines the issues of their mutual differentiation in the qualification of crimes in the customs sphere. At the same time, when qualifying crimes in this sphere, attention is paid to the mutual differences of the crimes provided for in Articles 130, 130<sup>1</sup>, 182, 184, 244<sup>3</sup>, 244<sup>4</sup>, 246 and 250<sup>1</sup> of the Criminal Code. In this regard, the most important issue of distinguishing between these crimes is their immediate object. Also, another important issue of differentiating between these crimes

is their subject. In this regard, the need for further improvement of criminal legislation is justified. As a result of the study, it was proposed to supplement the Criminal Code with a new Article 182<sup>1</sup> entitled "Economic Smuggling" and provide for liability for the illegal movement of the following items across the customs border: 1) goods or vehicles, the export and import of which is prohibited and restricted; 2) goods or vehicles subject to value-added tax, excise tax, protective measures, anti-dumping or compensation duties; 3) currency assets; 4) non-ferrous metals, their scrap and scrap; 5) other items causing serious damage to the economy. In addition, the article recommends dividing actions related to the illegal movement of items across the customs border, taking into account their subject, into the following three categories: ordinary smuggling, economic smuggling, and special smuggling. The article also proposes supplementing the Criminal Code with Article 184<sup>2</sup> entitled "Failure to pay customs duties" in order to resolve the problem of distinguishing between the crimes of violating customs legislation and evading customs duties.

**Keywords:** customs crimes, qualification of crimes, crimes of similar content, violation of customs legislation, crimes against the foundations of the economy, smuggling, economic smuggling, special smuggling, failure to fulfill the obligation to pay customs duties, protective measures, anti-dumping (compensation) duties.

## Kirish

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish tegishli jinoyat tarkibiga to'g'ri baho berishni, uning mazmuni va xususiyatlarini aniq tushunishni hamda o'xhash tarkibli jinoyatlarni farqlay olishni talab etadi. Shunday ekan, quyida bojxona sohasidagi jinoyatlarni boshqa, xususan, o'xhash jinoyat tarkiblaridan farqlash orqali ularning mazmuni va jinoyat tarkibini yanada yorqinroq tushunishga, chuqurroq tahlil qilishga harakat qilamiz.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar Jinoyat kodeksi Maxsus qismida nazarda tutilgan, xususan, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi, iqtisodiyot asoslariga hamda jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar tizimida ijtimoiy xavfliligi va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'z navbatida, bojxona sohasidagi jinoyatlarning obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni, shuningdek, jinoyat predmeti masalalarida o'zaro va boshqa ayrim jinoyatlarda mavjud holatlarga o'xhashdir. Shu sababdan, bojxona sohasidagi jinoyatlarni bunday jinoyatlardan farqlash ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada bojxona sohasidagi jinoyatlarni o'zaro farqlash masalasiga to'xtalamiz. Jumladan, JK 182-moddasida nazarda tutilgan bojxona to'g'risidagi qo-

nunchilikni buzishni JK 130-, 130<sup>1</sup>-, 244<sup>3</sup>-, 244<sup>4</sup>-, 246- va 250<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan bojxona sohasidagi boshqa jinoyatlar dan farqlash lozim. Mazkur jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasi, jinoyat obyekti hamda jinoyat predmeti bilan o'zaro farqlanadi. Jumladan, kontrabanda bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishga qaraganda ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lgan jinoyat hisoblanadi. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishning bevosita obyekti tovar va boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tkazishning belgilab qo'yilgan tartibi va shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asoslaridir [1, 112-b.]. Kontrabanda jinoyatining bevosita obyekti esa erkin fuqarolik muomalasidan chiqarilgan yoki erkin fuqarolik muomalasida bo'lishi cheklangan tovarlar va boshqa predmetlarni bojxona chegarasidan o'tkazish tartibi hamda shartlarini belgilovchi ijtimoiy munosabatlardir. Xuddi shuningdek, JK 130- va 130<sup>1</sup>-moddalarida nazarda tutilgan bojxona sohasidagi jinoyatlarning jinoyat obyekti jamiyatda oila va yoshlarga oid axloqiy munosabatlarga, JK 244<sup>3</sup>-, 244<sup>4</sup>- va 250<sup>1</sup>-moddalarida nazarda tutilgan bojxona sohasidagi jinoyatlarda esa jamoat xavfsizligi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarga qaratilgan.

## Material va metodlar

Tadqiqot doirasida qiyosiy-huquqiy hamda mantiqiy (analiz va sintez) metodlardan foydalanildi. Shuningdek, rasmiy elektron manbalar hamda olimlarning ilmiy maqolalari, tadqiqot ishlaridan foydalanilgani materiallarni ishonchli deb tavsiflashga asos bo'la oladi.

## Tadqiqot natijalari

Ushbu jinoyatlarni farqlovchi asosiy xususiyatlardan yana biri jinoyat predmeti hisoblanadi. Jumladan, kontrabandada JK 246-moddasida qat'iy ro'yxati keltirilgan, vayronagarchilik xususiyatidagi maxsus, o'ziga xos xossalarga ega bo'lgan, jangovar maqsadlarda qo'llash uchun mo'ljallangan ashyolar, shuningdek, jamoat xavfsizligiga xavf tug'diradigan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop hamda boshqa zararli moddalar jinoyat predmeti bo'ldi, 130-moddada pornografik mahsulot, 130<sup>1</sup>-moddada tazyiqni, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulot, 244<sup>3</sup>-moddada diniy mazmundagi materiallar, 244<sup>4</sup>-moddada uchuvchisiz uchadigan apparatlar, ularning butlovchi va ehtiyoq qismlari, 250<sup>1</sup>-moddada pirotexnika buyumlari jinoyat predmeti hisoblanadi. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzhishda esa jinoyat predmeti biror-bir vayronagarchilik ta'sirini ko'rsata olmaydigan, boshqacha aytganda, yuqorida sanalgan moddalarda nazarda tutilmagan tovar yoki qimatliklardir.

Ammo, fikrimizcha, milliy jinoyat qonunchiligidagi jinoyat predmetlari taqsimotida bunday yondashuv ham munozarali. Sababi, Jinoyat kodeksining 130-, 130<sup>1</sup>-, 244<sup>3</sup>-, 244<sup>43</sup>-, 246- va 250<sup>1</sup>-moddalarida nazarda tutilmagan predmetlardan tashqari erkin fuqarolik muomalasida bo'lishi taqilangan (jumladan, eksport yoki import qilish taqilangan tovarlar) yoki erkin fuqarolik muomalasida bo'lishi cheklangan (jumladan, eksport-import qilish uchun ruxsatnomasi yoki guvohnoma tabab qilinadigan) tovarlar va xomashyo turlari borki, ularni qonunga xilof ravishda bojxona

chegarasidan o'tkazish erkin fuqarolik muomalasida bo'ladigan predmetlarga nisbatan mamlakat iqtisodiyotiga (jamoat xavfsizligiga emas!) kattaroq zarar yetkazadi yoki shunday zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaradi.

Jumladan, Bojxona kodeksiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida alohida bojxona bojlari tizimi joriy etilgan. Alohida bojxona bojlari tizimiga maxsus, antidemping va kompensatsiya bojlari kiradi. Bundan tashqari, "Muhofaza chorralari, antidemping va kompensatsiya bojlari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, ushbu hujjat tovar importida iqtisodiyot tarmog'iga yetkazilayotgan jiddiy zararni yoki jiddiy zarar yetkazilishi xavfini bartaraf etish uchun muhofaza chorralari, antidemping va kompensatsiya bojlari qo'llanishiga oid munosabatlarni tartibga solish maqsadini ko'zlaydi. Unga binoan, agar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga tovar importi iqtisodiyot tarmog'iga jiddiy zarar yetkazayotgan yoki shunday zarar yetkazilishi xavfini tug'dirayotgan hajmda (mutlaq ifodasida yoki uni O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishga nisbatan) va sharoitda amalga oshirilayotgani vakolatli organning tekshiruvi natijalari asosida aniqlangan bo'lsa, Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan muhofaza chorralari qo'llanadi. Muhofaza chorralari tovar importi ko'paygani oqibatida iqtisodiyot tarmog'iga yetkazilayotgan jiddiy zararni yoki shunday zarar yetkazilishi xavfini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan miqdorda va muddatda qo'llanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga demping narxlari bo'yicha tovarni import qilish iqtisodiyot tarmog'iga jiddiy zarar yetkazayotgani yoki shunday zarar yetkazilishi xavfini tug'dirayotgani tekshirish natijalari bo'yicha aniqlangan bo'lsa, ana shunday import predmeti bo'lgan tovarga nisbatan antidemping boji qo'llanishi mumkin.

Agar ishlab chiqarish, eksport qilish yoki tashish jarayonida xorijiy davlat (xorijiy davlatlar ittifoqi) maxsus subsidiyasidan foydalilanilgan biror-bir tovarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga import qilinishi iqtisodiyot tarmog'iga jiddiy zarar yetkazayotgani yoki shunday zarar yetkazish xavfini tug'dirayotgani tekshirish natijalari bo'yicha aniqlangan bo'lsa, ana shunday biror-bir tovarga nisbatan kompensatsiya boji qo'llanishi mumkin.

Shuningdek, ushbu sohadagi munosabatlar Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 19-maydagi 129-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Muhofaza choralar, antidemping va kompensatsiya bojlarini qo'llanish maqsadida tekshirish o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom bilan ham tartibga solingan.

Shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiyot tarmog'iga yetkazilayotgan jiddiy zarar deganda O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga tovar importi ko'paygani, demping narxlaridagi tovar importi yoki subsidiya bilan ta'minlangan tovar importi oqibatida iqtisodiyot tarmog'ining ishlab chiqarish, savdo va moliyaviy ko'rsatkichlari sezilarli darajada pasaygani yoxud iqtisodiyot tarmog'i rivojlanishida sur'at sezilarli darajada susaygani tu-shuniladi.

Bundan tashqari, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasida O'zbekistonda quyidagi maqsadlarda qonunchilik bilan tovarlar eksporti va importi taqiqlanishi hamda cheklanishi mumkinligi belgilangan:

- milliy xavfsizlikni ta'minlash;
- fuqarolar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, hayvonot va o'simlik dunyosini hamda atrof-muhitni muhofaza qilish;
- ijtimoiy axloq-odobga va huquq-tartibotga rioxva etish;
- O'zbekiston Respublikasi xalqining madaniy merosini saqlash;
- madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqish, olib kirish va ularga bo'lgan mulk huquqlarini boshqaga o'tkazishdan himoya qilish;

- O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini saqlab turish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish;
- tiklab bo'lmaydigan tabiiy resurslar tughatilishining oldini olish;
- O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlarini himoya qilish. Misol tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi PF-5286-sonli farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari asosida eksport qilinadigan buyumlar va mahsulotlar ro'yxati tasdiqlangan.

Erkin fuqarolik muomalasida bo'lgan tovarni qonunga xilof ravishda bojxona chegasidan o'tkazishga nisbatan shunday xususiyatga ega bo'lgan tovar va xomashyolarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazishning ijtimoiy xavflilik darajasi ancha yuqoriligi o'z-o'zidan ayon. Lekin hozir amaliyotda bu kabi holatlarning barchasi JK 182-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmoqda. Bu, albatta, qonunchilikdagi kamchiliklar tuyaylidir.

Biz shunday toifadagi predmetlar uchun javobgarlikni differensiatsiya qilish kerak deb hisoblaymiz. Aslida bunday amaliyot ko'plab xorijiy davlatlarda allaqachon hayotga tatbiq etilgan. Jumladan, Ukraina JK 201-moddasida madaniy boyliklar kontrabandasi, 201<sup>1</sup>-moddasida yog'och va qimmatbaho daraxt turlari kontrabandasi, 201<sup>4</sup>-moddasida aksiz to'lanadigan tovarlar kontrabandasida uchun [2], Qozog'iston JK 234-moddasida [3], Polsha JK 299-moddasida [4] hamda Niderlandiya JK 337-moddasida [5] iqtisodiy kontrabanda uchun, Moldova JK 248<sup>1</sup>-moddasida aksiz to'lanadigan tovarlar kontrabandasida [6] uchun, RF JK 200<sup>1</sup>-moddasida naqd pul va pul vositalarining kontrabandasi, 200<sup>2</sup>-moddasida alkogollli ichimliklar va tamaki mahsulotlari kontrabandasida uchun [7] javobgarlik belgilangan.

## Tadqiqot natijalari tahlili

Qozog'iston JK 234-moddasiga ko'ra, kontrabanda (286-modda) predmeti hisoblanmagan, ammo bojxona chegarasi orqali olib o'tish taqiqlangan yoki cheklangan predmetlarni qonunga xilof ravishda turli usullar orqali bojxona chegarasidan o'tkazish iqtisodiy kontrabanda hisoblanadi. Polsha JK 299-moddasida javobgarlik belgilangan iqtisodiy kontrabandada jinoiy yo'l bilan topilgan to'lov vositalari, qimmatli qog'ozlar yoki boshqa valyuta boyliklari jinoyat predmeti hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, JKni "Iqtisodiy kontrabanda" deb nomlangan yangi 182<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirish hamda unda quyidagi predmetlarni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish uchun javobgarlikni nazarda tutish taklif qilinadi:

- eksport va import qilinishi taqiqlangan hamda cheklangan tovarlar yoki transport vositalari;

- qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, muhofaza choralar, antidemping yoki kompensatsiya bojlari joriy etilgan tovarlar yoki transport vositalari;

- valyuta qimmatliklari;

- rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlari;

- iqtisodiyot tarmog'iga jiddiy zarar yetkazadigan boshqa predmetlar.

Mazkur moddaning JK 182-moddasidan keyin joylashtirilishidan maqsad, iqtisodiy kontrabandada nazarda tutilgan predmetlarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazish, eng avvalo, mamlakatning iqtisodiyot tarmog'iga (jamoat xavfsizligiga emas), faqat ayrim holatlarda davlat xavfsizligiga zarar yetkazishi yoki shunday zarar yetkazish xavfini keltirib chiqarishidadir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda predmetlarni o'tkazish bilan bog'liq qilmishlarni ularning predmetini inobatga olgan holda, nazariy jihatdan quyidagi 3 turkumga ajratish mumkin:

1) maxsus kontrabanda – JK 130-, 130<sup>1</sup>-, 244<sup>3</sup>-, 244<sup>4</sup>-, 246-, 250<sup>1</sup>-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar. Ushbu jinoyatlar axloqiy munosabatlar va jamoat xavfsizligiga zarar yetkazish xususiyatiga ega bo'lgan predmetlarni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, bunday predmetlar turlari ushbu moddalarida to'g'ridan to'g'ri sanalgan, shu sababdan bunday toifadagi qilmishlar maxsus norma sifatida JK 130-, 130<sup>1</sup>-, 244<sup>3</sup>-, 244<sup>4</sup>-, 246-, 250<sup>1</sup>-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi;

2) iqtisodiy kontrabanda – JKning taklif etilayotgan 182<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutildigan jinoyat. Ushbu jinoyatlar milliy iqtisodiyot tarmog'iga (axloqiy munosabatlar va jamoat xavfsizligiga emas) jiddiy zarar yetkazish xususiyatiga ega bo'lgan predmetlarni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, bunday predmetlar turlari ushbu moddada ko'rsatilgan. Shu sababdan bunday toifadagi qilmishlar ham maxsus norma sifatida JK 182<sup>1</sup>-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi;

3) oddiy kontrabanda – JK 182-moddasida javobgarlik belgilangan bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati. Ushbu jinoyat maxsus kontrabanda va iqtisodiy kontrabandada nazarda tutilmagan boshqa barcha predmetlarni qamrab oладиган, odatda erkin fuqarolik muomalasida bo'lgan tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish bilan bog'liq qilmishlardir. Ularni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish iqtisodiyot tarmog'iga zarar yetkazadi yoki shunday zarar yetkazish xavfini kelтирib chiqaradi. Shu sababdan bunday qilmish JK 182-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Yuqoridagilarga asosan taklif etilayotgan JK 182<sup>1</sup>-moddasini quyidagi mazmunda bayon etish maqsadga muvofiq:

"182<sup>1</sup>-modda. Iqtisodiy kontrabanda

Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan

hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib eksport va import qilinishi taqiqlangan yoki cheklangan, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, muhofaza choralar, maxsus, antidemping yoki kompensatsiya bojlari joriy etilgan tovar yoki transport vositasini, valyuta qimmatliklarini, rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini, iqtisodiyot tarmog'iga jiddiy zarar yetkazadigan boshqa predmetlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tkazish, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, maxsus, antidemping yoki kompensatsiya bojlari shaklidagi bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash bilan bog'liq boshqa harakatlarni sodir etish –

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) chegarani buzib o'tish, ya'ni bojxona xizmatining roziliginini olmasdan turib, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan predmetlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan ochiq o'tkazish yo'li bilan;

b) bojxona nazoratini amalga oshirayotgan xodimga zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqtib;

d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

e) takroran yoki xavfli retsdivist tomonidan;

f) xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etilgan;

g) mansabga sovuqqonlik bilan qarash orqali predmetlarning bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda olib o'tilishiga sabab bo'lgan bo'lsa –

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
- b) o'ta xavfli retsdivist tomonidan;
- d) favqulodda holat joriy etilgan vaqtida sodir etilgan bo'lsa –  
sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi".

Ta'kidlash zarurki, bojxona sohasidagi jinoyatlar obyektiv va subyektiv tomonidan deyarli bir xil. Ushbu jinoyatlarning obyektiv tomoni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, predmetlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tkazishdan iborat. Subyektiv tomonidan ushbu qilmishlar jinoyat predmetlarini to'g'ri qasd bilan bojxona chegarasidan o'tkazish orqali sodir etiladi. Bunda motiv va maqsad ko'pchilik hollarda bir xil bo'lib, moddiy manfaat ko'rish istagidan iborat. Biroq ayrim hollarda kontrabanda terroristik xususiyatdagi niyatlarni amalga oshirish kabi boshqacha maqsadlar ham ko'zlanishi mumkin. O'z navbatida, jinoyatning maqsadi JK 130-, 130<sup>1</sup>- va 244<sup>3</sup>-moddalarida zaruriy belgi, JK 182-, 184-, 244<sup>4</sup>-, 246-, 250<sup>1</sup>-moddalarida fakultativ belgi hisoblanadi. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning barchasida subyekt 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi. Ya'ni bu borada ushbu jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda o'ziga xos farqlovchi jihatlar mavjud emas.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hamda bojxona to'lovlaridan bo'yin tov lash jinoyatlarini farqlash bu sohadagi jinoyatlar ni o'zaro farqlashdagi keyingi muhim masaladir. Ushbu ikki toifadagi jinoyatlar o'rtasidagi chegarani belgilash ham nazariy, ham amaliy jihatdan juda murakkab hisoblanadi. JKda belgilangan normalarga so'zma-so'z e'tibor qaratsak, bojxona to'lovlaridan bo'yin tov lash bilan bog'liq qilmish soliqlar yoki yig'imlarni

to'lashdan bo'yin tov lash uchun javobgarlik belgilangan JK 184-moddasi bilan qamrab olinadi degan xulosaga kelinadi. Chunki bojxona to'lovlar qonunchilikda belgilangan soliq va yig'implarning turlaridir. Muammo va munozarali holat shundaki, aksariyat olimlar, hatto O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi ham soliqlar yoki yig'implarni to'lashdan bo'yin tov lash uchun JK 184-moddasida javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, soliq va yig'implarning bir turi hisoblangan bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lashni modda dispozitsiyasida bu haqda biror ishora berilmagan JK 182-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish kerakligini, bunda JK 184-moddasidagi normalar bojxona to'lovlar uchun tatbiq etilmasligini qayd etishadi. Vaholanki, JK 184-moddasida bojxona to'lovlar ushbu modda uchun istisno ekanligi belgilangan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Soliqlar va yig'implarni to'lashdan bo'yin tov laganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanishi to'g'risida"gi qarori 7-bandiga ko'ra, "tovarlarni bojxona chegarasidan o'tkazish bilan bog'liq ravishda davlat boji tariqasidagi soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lashda ifodalangan harakatlar JK 182-moddasi bilan qamrab olinadi va JK 184-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi". Oliy Sud Plenumining ushbu va boshqa qarorlarida bu murakkab munozarali masala yuzasidan boshqa tushuntirish berilmagan.

Aslida ushbu ko'rsatma ham juda tahrirga muhtoj va tushunarsiz tarzda bayon etilgan. Birinchidan, qonunchilikda "*davlat boji tariqasidagi soliq*" degan birorta soliq turi yo'q yoki nazariyada bunday tushuncha umuman mavjud emas. Bu yerda qarorda qaysi soliq turi nazarda tutilayotganini tushunish qiyin. Ikkinchidan, qonunchilikda qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i *bojxona to'lovlarining* turlari sifatida belgilanganidan kelib chiqib, bu yerda ushbu soliq turlari nazarda tutilgan deb tushunsak ham, "Nima uchun Oliy

Sud Plenumi qarorida bojxona to'lovlarining boshqa turlari hisoblangan bojxona boji va bojxona yig'implardan bo'yin tov lash masalasi ochiq qoldirilgan?" degan haqli savol yuzaga keladi. Ya'ni yuqorida qayd etilgan Oliy Sud Plenumi qarorida faqat "*davlat boji tariqasidagi soliq*"dan bo'yin tov lash haqida xulosa berilgan. Bunday holatlar, albatta, amaliyotda katta muammoli savollarni yuzaga keltiradi.

Olimlarimizning ushbu masalada qarashlariga e'tibor qaratsak, bu borada O. Mahkamov quyidagi fikrlarni bildiradi: "Soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash o'z tabiatiga ko'ra bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishning predmetini o'z ichiga qamrab olmaydi. Chunki bojxona to'lovlar Soliq kodeksida belgilanishiga qaramasdan, uni undirish tartibi Bojxona kodeksi bilan tartibga solinadi. Demak, bojxona qonun hujjatlarini buzishda, ya'ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlaridan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazishda davlat daromadiga tushishi lozim yoki mumkin bo'lgan davlat bojlari kelib tushmaydi. Ayni shu sababdan va maxsus normalarning raqobati tamoyili ga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazishda to'lanmaydigan bojlar JK 182-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim" [8, 59-b.].

O. Mahkamov bu fikri bilan tahlil qilinayotgan masalaga oid yana bir muhim jihatga, ya'ni jinoyat predmetiga e'tibor qaratgan. Ammo jinoyat predmeti haqida to'xtalsak, bojxona to'lovlar soliq va yig'implarning turi hisoblangani sababli JK 184-moddasida nazarda tutilgan soliqlar yoki yig'implarni to'lashdan bo'yin tov lash jinoyatining predmetidir. JK 182-moddasi matnida nazarda tutilgan jinoyatning predmeti esa tovar yoki boshqa qimmatlik-

lardir. Modda dispozitsiyasiga ko'ra, bojxona to'lovlarini JK 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning predmetlari ro'yxatiga kiritishning imkonи yo'q, ya'ni ushbu moddada bunday predmet haqida izoh mavjud emas. Qolaversa, O. Mahkamov mulohazalarida "davlat boji"ni bayon etgan. Qonunchilikka ko'ra, davlat boji, bojxona to'lovlari yoki bojxona boji kabi tushunchalar sinonim tushunchalar emas, balki mazmunan bir-biridan tubdan farq qiladigan atamalar hisoblanadi.

Aslida Oliy Sud Plenumi qarori yoki olim-larning yuqoridagi kabi qarashlari ilgari surilishi ham asosli. Olimlar bunday nazariyani bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash amalda hech qachon sof shaklda sodir bo'lmasligi bilan izohlaydilar. Mavjud ilmiy va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish natijasida bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish tarkibi bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash tarkibini o'ziga "singdiradi" va aksincha, degan fikr hukmronlik qilishini ko'rsatdi. Shu sababdan ba'zi olimlar bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash jinoyat tarkibini qonunchilikda nazarda tutish kerak emasligini taklif qilsa [9, 45-b.; 10-, 110-b.], aksariyat olimlar bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish tariqasida jinoyatni qonunchilikdan chiqarib tashlash kerak [11, 23-b.], degan g'oyani ilgari suradilar.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishning bevosita asosiy obyekti erkin fuqarolik muomalasidagi hamda davlatning iqtisodiy manfaatlari uchun muhim bo'lgan tovarlar va boshqa predmetlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish tartibi va shartlarini belgilovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblansa, bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lashning bevosita asosiy obyekti bojxona chegarasidan predmetlarni o'tkazish jarayonida bojxona to'lovlarini to'lash orqali davlat budgeti daromadlarini shakllantirish hamda davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabat lardir. Demak, ushbu jinoyatlarning obyekti turlichay munosabatlar hisoblanadi.

Mazkur jinoyatlar predmet nuqtayi nazardan ham farqlanadi. Jumladan, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining predmeti tovar yoki transport vositasi hisoblansa, bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lashning predmeti bojxona to'lovlaridir.

Tahlil qilinayotgan jinoyatlarni farqlashda eng qiyin nuqta – jinoyatning obyektiv tomoni. Bunda bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish, ya'ni bojxona chegarasidan predmetlarni qonunga xilof ravishda olib o'tish asosan bojxona to'lovlaridan qochish maqsadida sodir etiladi, o'z navbatida, bojxona to'lovlaridan bo'yin tov lash tovar va transport vositasini faqat bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda olib o'tish orqali sodir etiladi, degan vizual tasvir ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, bunday holatda tahlil qilinayotgan ikkita jinoyat bir-biriga qorishib ketgandek ko'rindi. Ammo JK 182- va 184-moddarida belgilangan jinoyatlarning obyektiv tomonlariga chuqurroq e'tibor qaratsak, ushbu jinoyatlar o'rtasidagi chegarani aniqlash imkonи paydo bo'ladi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishning obyektiv tomoni (1) bojxona nazoratini chetlab, (2) bojxona nazoratidan yashirib, (3) bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, (4) deklaratsiyasiz yoxud (5) boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, predmetlarni bojxona chegarasidan o'tkazishdir. Bojxona to'lovlaridan bo'yin tov lashning obyektiv tomoni esa (1) bojxona to'lovlarini to'lanadigan obyektlarni qasddan yashirish, (2) ularni kamaytirib ko'rsatish hamda (3) belgilangan bojxona to'lovlarini to'lashdan boshqacha shaklda bo'yin tov lash, ya'ni belgilangan bojxona to'lovlarini to'lamaslikdan iborat.

Ko'rib turganimizdek, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishning obyektiv tomoni 5 turdag'i harakatdan, ya'ni faqat harakatdan, bojxona to'lovlaridan bo'yin tov lashning obyektiv tomoni esa 2 turdag'i harakat

va 1 turdag'i harakatsizlikdan, ya'ni harakat va harakatsizlikdan iborat. Bunda e'tibor qaratish zarurki, bojxona to'lovlaridan bo'yin tovlashni harakat bilan sodir etish bojxona to'lovlarini to'lanadigan obyektlarni aniqlagunga qadar bo'lgan bosqichda sodir etilsa, harakatsizlik qismi bojxona to'lovlarini to'lanadigan obyektlar aniqlangandan keyingi bosqichda, ya'ni to'lanadigan bojxona to'lovlarini belgilangan dan so'ng ularni to'lamaslik orqali sodir etiladi.

Aslida bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlashdagi harakatlar qismini bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishning obyektiv tomonida nazarda tutilgan usullar qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorida va olimlarning fikrlarida, bizningcha, ushbu holat mavjudligi sababli ham qayd etilgan yondashuvga tayanilgan. Lekin masala aniq va asoslar bilan batafsilroq ifoda etilmagan. Jinoyatning yuqorida qayd etilgan harakatsizlik qismini JK 182-moddasi bilan qamrab olish imkonni mavjud emas. Shu sababdan biz bojxona to'lovlaridan bo'yin tovlash jinoyati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarori hamda olimlarimiz tomonidan berilgan yondashuvni ma'qullamaymiz.

Amaliyotda ushbu masalada yuzaga kela-yotgan muammoni hal qilish maqsadida bojxona to'lovlarining harakat bilan ifodalangan qismini, ya'ni bojxona to'lovlarini to'lanishi kerak bo'lgan obyektlar aniqlangunga qadar bo'lgan harakatlar bilan bog'liq qilmishlarni JK 182-moddasi va tadqiqot ishida taklif etilayotgan JK 182<sup>1</sup>-moddasi (iqtisodiy kontrabanda) bilan qamrab olishni hamda bojxona to'lovlarini to'lanishi kerak bo'lgan obyektlar aniqlangandan keyingi bosqich, ya'ni belgilangan bojxona to'lovlarini to'lamaslik qismini JK 182- va 184-moddasidan ajratib chiqarishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

### Xulosalar

Xulosa qiladigan bo'lsak, kvalifikatsiya masalalarini o'rganish natijasida quyidagilar taklif etiladi:

1) JK 182-moddasi dispozitsiyasini "shuningdek, import, eksport, mavsumiy bojxona bojlari yoki bojxona yig'implari shaklidagi bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovash bilan bog'liq boshqa harakatlarni sodir etish" degan so'zlar bilan to'ldirish (bunda qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, muhofaza choralar, maxsus, antidemping yoki kompensatsiya bojlari shaklidagi bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovash bilan bog'liq boshqa harakatlarni sodir etish JKga kiritish taklif etilayotgan yangi 182<sup>1</sup>-modda bilan qamrab olinadi);

2) JKni quyidagi mazmundagi 184<sup>2</sup>-modda bilan to'ldirish:

"184<sup>2</sup>-modda. Bojxona to'lovini to'lash majburiyatini bajarmaslik

Ko'p miqdordagi bojxona to'lovini belgilangan muddatda to'lash majburiyatini qasd-dan bajarmaslik, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin sodir etilgan bo'lsa –

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Bojxona to'lovini to'lash majburiyatini bajarmaslik:

a) takroran;

b) juda ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa –

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bojxona to'lovlarini to'liq to'langan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanmaydi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u sodir etilgan jinoyat haqidagi xabarni olgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida bojxona to'lovlarini, shu jumladan, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o'rnini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi".

3) JK 184-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasidagi "shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki yig'implarni" degan so'zlarni "shuningdek, bojxona to'lovlaridan tashqari soliqlar yoki yig'implarni" degan so'zlar bilan almashtirish.

Qayd etish zarurki, bojxona to'lovini to'lash majburiyatini bajarmaslik jinoyatining subyekti har qanday shaxs emas, balki bojxona to'lovlarini to'lash majburiyati yuklangan shaxs hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 4. Special part. Economic crimes. Crimes in the field of ecology. Crimes against the activity order of authorities, management and public associations. Tashkent, Ilm Ziya, 2011, p. 112.
2. Ukrainian Criminal Code of April 5, 2001, No. 2341-III. Available at: [www.online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=30418109&pos=8;-108#pos=8;-108](http://www.online.zakon.kz/Document/?doc_id=30418109&pos=8;-108#pos=8;-108)
3. Copyright Code of the Republic of Kazakhstan dated 2014, July 3, No. 226-V. Available at: [www.online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31575252&pos=5;-108#pos=5;-108](http://www.online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252&pos=5;-108#pos=5;-108)
4. The Criminal Code of Poland. 1997. Available at: [www.wordpress.com/2014/06/the-criminal-code.pdf](http://www.wordpress.com/2014/06/the-criminal-code.pdf)
5. Criminal Code of Netherlands. Available at: [www.antislaverylaw.ac.uk/wp-content/uploads/2019/08/Netherlands-Criminal-Code.pdf](http://www.antislaverylaw.ac.uk/wp-content/uploads/2019/08/Netherlands-Criminal-Code.pdf)
6. Criminal Code of the Republic of Moldova dated 2002, April 18, No. 985-XV. Available at: [www.continent-online.com/Document/?doc\\_id=30394923&pos=6;-143](http://www.continent-online.com/Document/?doc_id=30394923&pos=6;-143)
7. Criminal Code of the Russian Federation. 1996, No. 63-FZ. Available at: [www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_10699/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/)
8. Maxkamov O.M. Soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovashning jinoiy-huquqiy va kriminalistik jihatlari [Criminal-legal and criminological aspects of tax evasion or other compulsory payments]. Tashkent, 2015, p. 59.
9. Agzamkhodzhaev T.A., Mayakova A.S. K voprosu o tamozhennoy prestupnosti: problemy kriminologicheskogo aspekta [On the issue of customs crime: criminological aspect of muammosi]. *Modern Scientific Research and Innovation*, 2015, vol. 4 (2), p. 45.
10. Khudyakova N.I. Problemy razgranicheniya ukloneniya ot uplaty tamozhennykh platezhей (st. 194 UK RF) ot smezhnykh sostavov prestupleniy [Problems of distinguishing between evasion of customs duties (Article 194 of the Criminal Code of the Russian Federation) and related crimes]. St. Petersburg, Legal thought, 2013, p. 110.
11. Skachko A.V. Ukloneniye ot uplaty tamozhennykh platezhей, vziymayemykh s organizatsii ili fizicheskogo litsa, v interpretatsii deystvuyushchey st. 194 UK RF: bessporno pozitivnye i spornyye novelly [Avoidance of the use of temporary accommodation, taken from an organization or an individual, in interpreting the validity of Article 194 UK RF: unsolicited positive and controversial novelties]. *Russian Investigator*, 2013, no. 20, p. 23.
12. Ermashov J.M. Analysis of the Objective Side of Crimes in the Field of Customs. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2024, vol. 04 (03). DOI: 10.55640/eijmrms-04-03-16
13. Ovchinnikov S. Definition of Customs Offences in International Law 2 3. *Mediterranean Journal of Social Sciences*, 2015, no. 6, pp. 219–224. DOI: 10.5901/mjss.2015.v6n3s6p
14. Ibileye, G. Protecting Nigerian land and cyberspace borders through digital forensics. 2012. Available at: [https://www.customs.gov.ng/Publications/other\\_publications.php](https://www.customs.gov.ng/Publications/other_publications.php)
15. Import Crimes & Customs Violations. Available at: <https://www.bartkasperolaw.com/international-trade-customs-law/import-crimes/>

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

# REVIEW OF LAW SCIENCES

Нуқуқија илми-амалиј журнал

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2024-yil 3-son**

VOLUME 8 / ISSUE 3 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.3.